

**KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILI O‘RGATISHNING MUHIM
JIHATLARI**

**IMPORTANT ASPECTS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO
YOUNG CHILDREN**

**ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ
МАЛЕНЬКИХ ДЕТЕЙ**

Gafurova Nodira Ravshanovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

nodiranodira0505@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarga chet tili o‘rgatishning muxim jihatlari yoritilgan. Kichik yoshdagi bolalarga til o‘rgatishda aynan qaysi metodlar orqali o‘rgatish ko‘proq samarali ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: farzand, yetuk inson, ta’lim, tarbiya, metod, metodika, chet tili, muloqot, ruxiyat, yosh, bola, baxs-munozara, til, pedagog, dars, o‘yin, samara, rivojlanish.

Abstract: This article describes the important aspects of teaching a foreign language to young children. It has been analyzed which methods are more effective in teaching language to young children.

Key words: child, mature person, education, training, method, methodology, foreign language, communication, spirit, age, child, discussion, language, pedagogue, lesson, game, effect, development.

Аннотация: В данной статье освещены важные аспекты обучения иностранному языку детей раннего возраста. Проанализировано, какие методы более эффективны при обучении языку детей раннего возраста.

Ключевые слова: ребенок, зрелая личность, воспитание, обучение, метод, методика, иностранный язык, общение, дух, возраст, ребенок, дискуссия, язык, педагог, урок, игра, эффект, развитие.

Har bir ota-ona farzandining yetuk inson bo‘lishini istaydi va shu maqsadda uning bilim olishi uchun qulay sharoitlarni yaratishga intiladi. Texnika rivojlangan

hozirgi kunda ma'lumotlar zaxirasini topish muammo emas. Faqat buning uchun chet tilini o'rganishning o'zi kifoya. Hech kimga sir emaski, ingliz tili dunyoning barcha mamlakatlarida muloqot tili sifatida qabul qilingan. Uni o'rgatish va o'rganishda qo'l keladigan samarali manbalar ishlab chiqilmoqda. Ma'lumot shu qadar ko'pki, ularni tanlashda va foydalanishda bir qancha muammolarga duch kelinadi. Bolaga til o'rgatishda nimalarga e'tibor berish zarur, qaysi uslublardan foydalanish maqsadga muvofiq? Bugungi kunda chet tilini o'rganishda turli metodika tavsiya etiladi. Ularning barchasi albatta o'zining natijasini bergan. Bolaga til o'rgatishda metodika qanday bo'lmasin, u yaxshi samara berishi va bolaning yoshi hamda ruxiyatiga mos bo'lishi zarur. Muloqotga o'rgatishda bolaning 3-4 yosh atrofidagi vaqti xisoblanadi. Aynan shu yoshda til o'rganish ko'nikmalari shakllanadi. Bu davrda xotira rivojlanib, bola ko'rgan va eshitgan narsalarini tez yodda saqlab qoladi. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim uassasalarida bolaga til o'rgatishda turli rangli suratlardan foydalaniladi, bu esa bola e'tiborini jalb qilishda muxim rol o'ynaydi. Chet tilini o'rgatish metodikasi ikki katta guruxga ajratiladi, ya'ni guruh bilan va yakka tartibda shug'ullanish. Bu ikkisining qay biri ko'proq samara berishi bugungi kungacha baxs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Aytish joizki, ularni qo'llash tartibi bolaning ruxiy va fe'l-atvorini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi. Agar bola quvnoq va kirishuvchan bo'lsa, gurux bilan ishlash metodikasi tavsiya etiladi. Aksincha, agar u tabiatan sokin va tortinchoq bo'lsa, yakka xolda mashg'ulotalr o'tkaziladi.

Til o'rganishda nimalarni inobatga olish zarur? Ishning samarasi pedogogdan ulkan mahorat va qunt talab etadi. U xoh guruh xoh yakka tartibda mashg'ulot olib borishidan qatiiy nazar, tila o'ratishning asosiy qoidaalrini yodda tutishi shart. Quyida ana shu muxim jihatlarga to'xtalib o'tamiz. Tabiiylik – eng muxim xisoblanib, bolaga til o'rgatishda tabiiy muxitni yaratish sezilarli natija beradi. Qulay sharoitda bola tilni tez o'zlashtiradi. Ikkinchi navbatda, bolani tilga qiziqtirish ahamiyatli xisoblanib, bunda uining qiziqishlari, ko'proq nimalarga ahamiyat qaratishi e'tiborga olinadi va shularga asoslangan xolda darslar olib boriladi. Aks xolda, xarakatlar hech qanday natija bermaydi. Bolada darslar zerikarli degan

tushuncha paydo bo‘ladi. Dars jarayonlarida materiallarning keng qamrovliligiga aloxida e‘tibor qaratish zarur.

Bola yoshini inobatga olgan xolda bir vaqtning o‘zida grammatika, jonli muloqot va o‘qish jarayonlari amalga oshiriladi. Garchi bola gapirishga tez o‘rganmasada, u so‘zlarni tanii boshlaydi va begona til grammatikasiga moslashadi. Bolaga til o‘rgatish pedogog uchun sabr va talabchanlikni taqozo etadi. Chunki har doim ham bola dars olishni istayvermaydi. Bunday xolatlarda ruxiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmagan xolda, biroz talabchan bo‘lish zarur. Me‘yordan oshirib yuborish bolada o‘qituvchi haqida yomon taasurot uyg‘otadi va bu darslarni o‘zlashtirishga ta‘sir etmay qolmaydi. Hozirda turli o‘yinlar orqali mashg‘ulot o‘tkazish til o‘rgatishning samarali usuli sifatida qaralmoqda. Bu metod nafaqat bolalarda, balki kattalar uchun ham maqbuldir. Bola yoshiga va qiziqishiga qarab o‘yin tanlanishi uning mashg‘ulot davomida zerikib qolmasligini kafolatlaydi. O‘yinlar haqida alohida to‘htalib o‘tsak. O‘yin – bola dunyoqarashini o‘stirishda, oddiy usul bilan o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan qoidalarni anglatishda, faollikni oshirishga va boshqa ko‘plab natijalarga erishishda muxim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida o‘yinlar turli ko‘rinishlarga ajratiladi. Ularga vaziyatli o‘yinlarni kiritish mumkin. Unda real hayotda sodir bo‘ladigan xolatlarni rollar orqali jonlantirish, ana shunday vaziyatlarda egallangan ko‘nikmaalrni takrorlash va oddiy muloqotda qo‘llay olish nazarda tutiladi. Bu o‘yinda bola o‘z tasavvurlarini ham ishga soladi. Natijada unda chet tilida erkin fikrlash qobiliyati shakllanadi. Musobaqali o‘yinlar gurux o‘rtasida kutilgan natija beradi. Bunda asosan so‘z o‘yinlari, grammatik o‘yinlar, krossvordlar, til o‘rganish bilan bog‘liq mashqlar raqib guuxlarga ajratish orqali amalga oshiriladi. Bu kabi o‘yinlar pedogogga bolaning darslarni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlashda yordam beradi. Natijada bola keyingi safar g‘olib bo‘lish uchun unutilgan so‘z va grammatik qoidalarni egallashga xarakat qiladi. Musiqali o‘yinlar ham til o‘rganishda juda samarali usul bo‘lib, qo‘shiq matnlarini yodlash, raqs ijro etish, turli xarakatlar yordamida so‘zlarni o‘ranish va qo‘llash bola tasavvurini boyitadi va unda ijobiy taasurot qoldiradi. Qo‘shiq oxanggi tafakkurga tez singadi. Shuni yodda tutish

kerakki, tilni o‘zlashtirishda eng muximi malaka va tajribadir. O‘zlashtirilayotgan barcha materiallar takroni va amalda ko‘p marta qo‘llashni nazarda tutadi. Bolani tilga o‘ratishda faqat pedogog mas’ul emas, bunday xolatda ota-ona ham birdek javobgardir. Jarayon samarali bo‘lishi uchun avvalo uy sharoitida ham qulay atmoferani yaratish zarur. Bolani zinxor boshqa tengdoshlari bilan taqqoslamalik kerak. Sababi barcha bola turlicha qobiliyat va ruxiyatga ega. Boshqalar bilan taqqoslash uning o‘zini nuqsonli sezishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari uning atrofida maktab buyumlarini olib tashlagan ma’qul, chunki maktabdagi darslar majburiyat xisoblanib, til o‘rganish bola uchun majburiyat xisoblanmasligi kerak. U o‘zini erkin xis qilishi joiz. Ko‘rib anglash va yodda tutishi uchun imkoniyat yaratish zarur. Uslub qanday bo‘lishidan qat’iy nazar til uchun og‘zaki nutq muximdir. Grammatik qoidalar bola yodida qolmaydi. Ular asta-sekinlik bilan uning xotirasida saqlanib boradi. Faqat barchasini juda oson va tushunarli qilib yetkazish kutilgan natijaga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘XATI:

1. Ravshanovna, G. N. (2022). THE STUDY OF THE MEANING OF THE WORD TOLERANCE IN OTHER LANGUAGES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 8-9).
2. Ravshanovna, G. N., & Ahmadjanovna, E. T. U. (2021). Methodological characteristics of formation of tolerance skill pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1623-1628.
3. Ravshanovna, G. N. (2021). Methods of development tolerance skills pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1221-1224.
4. Ravshanovna, G. N. (2022). TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS PEDAGOGICAL MODEL OF SKILLS DEVELOPMENT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 95-96.

5. Ravshanovna, G. N. (2020). The Main Directions Of Developing Tolerance Skills Of Primary School Pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2020.
6. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 975-980.
7. Ravshanovna, G. N. (2019). TRAINING THE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
8. Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17).
9. Teacher, G. N. R. E. THE IMPORTANCE USAGE OF EXTENSIVE READING Gafurova NR (Republic of Uzbekistan) Email: Gafurova339@scientifictext.ru. *UIF-2022*, 8.
10. Qizi, O. S. S., & Ravshanovna, G. N. (2022). The scope of neologisms in science fiction. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1149-1151.
11. Гафурова, Н. Р. (2019). Use of modern technologies in the foreign language lessons in primary education. *Молодой ученый*, (15), 256-258.
12. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA KO ‘P MADANIYATLI TA’LIMNING MOHIYATI, MAZMUNI VA BAG ‘RIKENGLIK SHAKLLARI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 96